



Ekologiya soxasida vakolatli boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish: xorijiy mamlakatlar tajribasi misolida

Alloberdiyeva Durdona O'ktamjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: durdona_alloberdiyeva@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10279271>

ARTICLE INFO

Received: 26th November 2023

Accepted: 01st December 2023

Online: 02nd December 2023

KEY WORDS

Davlat ekologik nazorati, maxsus vakolatli davlat organlari, atrof-muhit, moratoriy, ekologik muammolar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Ekologiya soxasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish zarurati borasida mahalliy va xorijlik huquqshunos olimlarning fikrlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari tizimini optimallashtirish masalasi xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida yoritib berilgan. Shu bilan birga, davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish yuzasidan asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida amalda bo'lgan qonunchilik asosida mamlakatimizda ham davlat ekologik nazoratini amalga oshirish vakolatini yagona davlat boshqaruv organiga berish masalasi tahlil qilingan.

Bugungi kunda Ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitni asrab-avaylash dunyo hamjamiyati oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, iqlim o'zgarishi, Ozon qatlamining yemirilishi, Antarktida muzliklarining erishi, global isish, chuchuk suvning tanqisligi natijasida ko'plab ekologik muammolar vujudga kelmoqda. 2021-yilning 9-noyabrida Shotlandiyaning Glazgo shahrida bo'lib o'tgan BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konventsiyasi ishtirokchilarining 26-konferensiyasida Bosh kotib Antonio Guterrish iqlim o'zgarishi haqida quyidagi fikrlarni bildirdi: "Parij kelishuvlari imzolanganidan buyon so'nggi olti yil kuzatuvlar tarixidagi eng issiq yillar bo'ldi. Bizning qazib olinadigan yonilg'i turlariga qaramligimiz insoniyatni tubsizlikka olib boradi. Og'ir tanlov oldida turibmiz: yo biz bu jarayonni to'xtatamiz, yo bu bizni to'xtatadi. "Bas, yetar" deyish vaqt keldi. Bioxilmaxillikni masxara qilish, o'zimizni uglerod bilan o'ldirish, tabiatga chiqindi o'rasi sifatida munosabatda bo'lish, yoqish, yanada chuqurroq qazishga bas, yetar deyish vaqti keldi. Axir biz o'zimizga qabr qaziyapmiz". Aksariyat huquqshunos olimlar milliy huquqiy tizimni takomillashtirishda qiyosiy huquqshunoslikning roli ortib borayotganligini ta'kidlashadi[1].



Shuningdek, Kristofer Osakve Ma'muriy huquq sohasi uchun chet el huquqining ruxsat etilgan ta'sirini aniqlash va qonunchilikni bir xil sohalari va institutlarini mohirona taqqoslash muhim ekanligini, lekin uni tizimsiz ravishda o'rganish noto'g'ri qarorlarga olib kelishi mumkinligi, chunki "komporavistika" ilmiy-huquqiy bilimlarning kengayib borayotgan sohasi bo'lib, huquq tizimidagi nazariy va uslubiy fanni ham, amaliy huquqshunoslik metodologiyasini ham anglatishini ta'kidlaydi[2]. M.Redkous esa huquq metodologiyasi va metodikani o'rganish qiyosiy huquqiy tahlilning asosiy instrumentlari sifatida katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, muayyan huquq sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish asosida mazkur huquq sohaslarining istiqbollari belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki har bir davlat o'ziga xos huquqiy tizimga ega bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri milliy huquqiy tizimga tatbiq etib bo'lmaydi. Shu sababli, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlari, aholining huquqiy ongini inobatga olgan holda joriy etish lozim hisoblanadi.

Shunga ko'ra ekologiya sohasini tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini optimallashtirish, ularning vazifa va funktsiyalarini aniqlashtirish, sohani tartibga solish faoliyati samaradorligini oshirishda mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish hamda mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlashda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Shu sababli quyida sohani tartibga soluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ba'zi xorijiy davlatlarning tajribasini tahlil qilib chiqamiz. Bu borada Amerika Qo'shma shtatlarida mazkur soha 1970-yilda tashkil etilgan Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi tomonidan tartibga solinadi. Agentlik atrof-muhitni baholash, tadqiqot va ta'lim bilan shug'ullanadi. U davlat, shtat va mahalliy hukumat organlari bilan hamkorlikda turli xil atrof-muhit qonunlariga muvofiq milliy standartlarni saqlash va qo'llash uchun javobgar hisoblanadi. Agentlikning huquqni qo'llash bo'yicha vaoklatlariga jarimalar, sanksiyalar va boshqa choralarni qo'llash kiradi[3]. Germaniyada esa ekologiya sohasini tartibga soluvchi yagona organ Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadroviy xavfsizlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federal vazirligi hisoblanadi. Mazkur vazirlik 30 yildan ortiq vaqt davomida fuqarolarni ekologik zaharli moddalar va radiatsiyadan himoya qilish, xomashyodan oqilona va tejamkor foydalanish, iqlimni muhofaza qilish, xomashyodan oqilona va tejamkor foydalanish, hayvon va o'simlik turlari hamda ularning yashash muhitining saqlanishini ta'minlaydi[4]. Vazirlik o'z vazifalarini bajarish uchun quyidagi vositalardan foydalanadi: Asosiy vazifa tartibga soluvchi sohalarda huquqiy bazani shakllantirish uchun normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hisoblanadi. Bunga Yevropa Ittifoqi normalarini milliy qonunchilikka tatbiq qilish ham kiradi.

Ukraina Ekologiya va tabiiy resurslari vazirligi. Ukraina Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligi Ukraina Vazirlar Mahkamasi tomonidan boshqariladigan va muvofiqlashtiriladigan markaziy ijroiya hokimiyatidir[5]. Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligi atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik, chiqindilarni qayta ishlash, xavfli kimyoviy moddalar, pestitsidlar va qishloq xo'jaligi kimyoviy moddalari bilan shug'ullanadi va davlat ekologik ekspertizasini amalga oshiradi. Vazirlik atmosfera havosi, ozon qatlamini saqlab qolish, o'simlik va hayvonot dunyosini tiklash va himoya qilish, yerlarni tiklash va himoya qilish, suv



resurslarini (erusti, yer, dengiz suvlari) tiklash va himoya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida amaliy ishlar olib boradi. Bu borada Belarus davlati tajrbasini ham ta'kidlash joiz. Belarus Respublikasida 1992-yil 26-noyabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Belarus Respublikasi qonuni 8-moddasiga muvofiq atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi Belarus Respublikasi Prezidenti, Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashi, Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi va uning hududiy organlari, boshqa maxsus vakolatli respublika davlat boshqaruv organlari va ularning hududiy organlari, mahalliy deputatlar vakillari, ijro etuvchi va boshqaruv organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi[6]. Maxsus vakolatli respublika davlat boshqaruv organlariga Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Favqulotda vaziyatlar vazirligi, O'rmon xo'jaligi vazirligi, Mulk bo'yicha davlat qo'mitasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa respublika davlat boshqaruv organlari kiradi.

"Qozog'iston Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligi to'g'risida Nizom"ga muvofiq Qozog'iston Respublikasida ekologiya sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, meteorologik va geologik monitoring o'tkazish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish (tibbiy, biologik va radioaktiv chiqindilar bundan mustasno) sohalarida boshqaruvni amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash va nazorat qilish, suv fondidan foydalanish va himoya qilish, suv chiqarish, o'rmon xo'jaligi, hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ko'paytirish va ulardan foydalanish, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, o'simlik dunyosini muhofaza qilish, tiklash va ulardan foydalanish, qozoq it zotlarini saqlash va ko'paytirish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi[7].

Vazirlikda quyidagi idoralar mavjud hisoblanadi:

- 1) Qozog'iston Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligining ekologik tartibga solish va nazorat qo'mitasi;
- 2) Qozog'iston Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligining o'rmon xo'jaligi va hayvonot dunyosi qo'mitasi;
- 3) Qozog'iston Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligining baliqchilik xo'jaligi qo'mitasi;
- 4) Qozog'iston Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligining suv resurslari qo'mitasi[8].

Qozog'iston Respublikasi Ekologiya kodeksining 27-moddasiga muvofiq atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organ atrof-muhitni muhofaza qilish, meteorologiya va gidrologik monitoring sohasida rahbarlik va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan markaziy ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi[9].

Mamlakatimizdagi hozirgi ekologik vaziyat maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining ekologik funktsiyasini yanada rivojlantirish va takomil-lashtirishni taqozo etmoqda. Chunonchi, O'zbekistonda atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish borasidagi bir qator tadbirlarni amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, ekologik munosabatlar hali ham tabiat va jamiyat uchun nomutanosib darajada saqlanishda davom etmoqda. Bu nomutanosiblikni, ekologik muammolarni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, insonlar uchun qulay tabiiy atrof-muhitni vujudga keltirishda maxsus vakolatli davlat organlarining



rolini, uning funktsiyasini kuchaytirmasdan, takomillashtirmasdan bartaraf etish va hal qilish juda qiyin. Xorijiy mamdakatlar tajribasi tahlili Sobiq Ittifoq mamlakatlarida sohani tartibga soluvchi ko'plab davlat boshqaruv organlari tizimiga ekanligidan dalolat beradi[10]. Buni biz, bevosita, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi mamlakatlar qonunchiligidan ham ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday holat O'zbekistonda ham mavjudligini yuqoridagi paragraflarimizda ko'rib chiqdik.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida o'ndan ortiq maxsus vakolatli davlat organlari faoliyat yuritmoqda. Tan olish kerakki, mazkur organlarni yaxlit holda tutib turuvchi tizim tashkil etilmaganligi sohadagi muammolarning samarali yechimlar bilan ta'minlanmayotganligini ko'rsatadi. Xorijiy davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi ilg'or davlatlarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish funktsiyasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu esa organlar tarqoqligiga chek qo'yib, yagona tizim shakllantirilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat yuritayotgan mavjud barcha organlarni yagona vazirlikga birlashtirish hamda markazlashgan ekologik siyosat yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida maxsus vakolatli davlat organlari tuzilmasi, moddiy-texnik ba'zasi, umuman olganda, davlat organlari miqyosidagi tutgan o'rni boshqa davlat organlari bilan qiyoslanganda ancha past hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi.

References:

1. Balashenko S.A., Makarova T.I., Lizgarov V.E. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Minsk, 2015, 402 p.
2. Surkova I. S. Ekologicheskoye upravleniye: problemy teoretiko-pravovogo opredeleniya [Ecological management: problems of theoretical and legal definition]. Yuridicheskiye issledovaniya – Legal Studies, Stavropol, 2013, no. 1, pp. 100–104.
3. Fayziyev Sh.X. Teoreticheskiye problemy pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan [Theoretical problems of legal support of the environmental policy of the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2004.
4. Chkhutiashvili L.V. Sovershenstvovaniya gosudarstvennogo ekologicheskogo kontrolya (nadzora) [Improving state environmental control (supervision)]. Russian law, 2016, no. 9, pp. 155–162.
5. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Kazan, Centr innovatsion texnology, 2014, 335 p.
6. Balashenko S.A. Gosudarstvennoye upravleniye v oblasti okhrany okruzhayushhey sredy [State administration in the field of environmental protection]. 2000, 341 p.
7. Environmental control and audit in nature management: a course of lectures. Krasnodar, 2015, 62 p.
8. Bogolyubova S.A. Ekologicheskoye pravo [Environmental Law]. Yurayt, 2011, 482 p.



9. Okhrana okruzhayushhey prirodnoy sredy: postateynnyy kommentariy k Zakonu Rossii [Protection of the natural environment: Article-by-article commentary to the Law of Russia]. Moscow, 1993, p. 153.
10. Popov N.V., Radchenko S.Y. Environmental management and governance of natural resources. Public Administration Issues, 2013, no. 4.
11. Starilov Yu.N. The system of federal executive bodies: the formation of a transparent law making or government procedures? Bulletin of the Voronezh State University, 2016, no. 3.
12. Upravleniye prirodopol'zovaniyem [Environmental management]. Eds. S.M. Nikonorov, M.V. Palt. Moscow, 2017, 200 p.
13. Rusin S.N. Organizatsionnyy mekhanizm okhrany okruzhayushchey sredy: naslediye professora V.V. Petrova i sovremennyye problemy [Organizational mechanism of environmental protection: the legacy of Professor V.V. Petrova and modern problems]. Environmental Law, 2014, no. 5–6. pp. 43-47.